

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI AHAMIYATI, RIVOJLANISHI VA FOYDALANISH METODIKALARI

Maxmudova Fotima Shamshidinovna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

Maxsudova Dilafruz

Toshkent viloyati Toshkent tumani 26-umumiy o'rta ta'lim maktabining informatika fan  
o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Ta'lim tarbiya tizimining bugungi kundagi vazifasi o'sib-ulg'ayib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirgan, komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'linda axborot texnologiyalari ahamiyati, rivojlanishi va foydalanish metodikalari xususida so'z yuritildi.*

**Kalit so'zlar:** *boshlang'ich ta'lim; axborot texnologiyalari; metodika.*

Ma'lumki, ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsnинг taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiysi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimedya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman » deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim. Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, inson ongi ma'lumotlarning 90% ni ko'rish, 9% ni eshitish, 1% ni esa his qilish orqali qabul qilar ekan. Bundan kelib chiqqan holda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi.

O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanilishi o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiropi va harakati orqali amalga oshiriladi. Bu orqali fanga bo'lgan qiziqish

uyg‘onib, o‘z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash, mavzuni o‘rganishda o‘zi uchun qulay bolgan tezlik va o‘zlashtirish darajasini tanlash imkoniyatini beradi. O‘qitishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan metodi ta’lim oluvchilarining ma’lum darajada ilmiy texnik tadqiqot olib borish jarayonidagi mustaqil ijodiy faoliyatni ko‘zda tutadi. Bu metoddan foydalanylarda ta’lim faol tadqiqot, kashfiyat va o‘yin natijasi sanaladi, buning natijasi muvaffaqiyatliroq bo‘ladi.

Shubhasizki, axborot-kommunikatsion texnologiyalar foydalanish boshlang‘ich ta’lim jarayonini yangi sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlariga erishish, boshqarish jarayonini tezlashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish natijasida ta’lim tamoyillari, mohiyati o‘zgaradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchilarining imkoniyatlari va talablarini inobatga olish zarur. O‘qituvchi tomonidan targ‘ib etilayotgan ta’lim va tarbiya tizimi shaxsga yo‘naltirilgan xarakterda ega bo‘lishi, ya’ni shaxsning har xil xususiyatlari va sifatiga e’tibor qilgan holda tadbiq etilayotgan ta’lim sifatiga e’tibor qilgan holda tabaqalashtirilgan bo‘lishi kerak.

Vazifalarni hal qilish uchun ishda quyidagi tadqiqot usullari qo’llanildi: nazariy - tadqiqot muammosi bo‘yicha mahalliy va xorijiy psixologik-pedagogik, uslubiy, didaktik adabiyotlarni o‘rganish; boshlang‘ich maktab o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish tajribasini, axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha pedagogik tajribani tahlil qilish va umumlashtirish; boshlang‘ich sinf o‘quv jarayonida qo’llaniladigan dasturiy ta’minot va axborot texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish. Yaponiyada boshlang‘ich maktabda ta’lim har bir inson hayotidagi muhim voqealardan biri hisoblanadi - bu ta’limning uzluksizligiga ijobiy munosabatni shakllantirishning asosiy omilidir. Pedagogika maktabini tugatgandan so‘ng, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi o‘ttizga yaqin talaba bo‘lishi mumkin bo‘lgan sinf bilan ishslashga tayyor bo‘lishi kerak. O‘qituvchi nafaqat ta’lim funktsiyalarini bajarishga qodir bo‘lishi kerak, balki o‘quv funktsiyalarini bajarishga ham tayyor bo‘lishi kerak - bu, albatta, fanlarni o‘rganishni qo’llab-quvvatlash, talabalar faoliyatini nazorat qilish va hokazolar uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rang-barangligi – boshlang‘ich sinf o‘quvchining qiziqishini, imkoniyati va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib taklif etilayotgan hollardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta’lim tizimida ham o‘z aksini topish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining har xil sathli o‘qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etishi bunday muammoning yechimi bo‘la oladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. S. Ergasheva. Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliliklari. Toshkent. 2022.
2. U. Begimqulov. Pedagogik ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari va istiqbollari. Toshkent. 2006.